

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc. 03/2025.27.12.I.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**BOTIROVA HULKAR OLIMDJONOVNA**

**TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA**  
**INFRATUZILMADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on economic sciences**

**Botirova Hulkar Olimdjonovna**

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda infratuzilmadan foydalanishning nazariy  
asoslari .....3

**Ботирова Хулкар Олимджоновна**

Теоретические основы использования инфраструктуры в развитии  
предпринимательской деятельности.....29

**Botirova Hulkar Olimdjonovna**

Theoretical foundations of using infrastructure in the development of entrepreneurial  
activity.....59

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published papers .....65

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc. 03/2025.27.12.I.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**BOTIROVA HULKAR OLIMDJONOVNA**

**TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA**  
**INFRATUZILMADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Iqt5637 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtiriladi.

**Ilmiy rahbar:**

**Norboyev Odil Abrayevich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Nabiyev Elshod Ganiyevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Israilova Shoira Turg'unovna**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Alfraganus Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc03/2025.27.12.I.23.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-01-49, (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-88-72; faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
2026yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

**B.E. Mamaraximov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda infratuzilmadan samarali foydalanish (transport-logistika, energiya, aloqa-raqamli tarmoqlar, moliyaviy va institutsional infratuzilma) ishlab chiqarish va savdo jarayonlarida tranzaksion xarajatlarni pasaytirib, bozorlarga kirishni yengillashtiradi va biznes miqyoslarining kengayishini tezlashtiradi. Infratuzilma sifati yuqori bo'lgan hududlarda ta'minot zanjiri uzilishlari kamayishi, yetkazib berish muddatlarining qisqarishi va xizmatlar barqarorligi hisobiga korxonalarining mahsuldorligi hamda raqobatbardoshligi oshadi. Shuningdek, raqamli infratuzilma, to'lov va kredit infratuzilmasi rivoji kichik biznes uchun elektron tijorat, ma'lumotlarga tayangan marketing va moliyalashtirishga kirish imkoniyatlarini kengaytirib, yangi ish o'rinlari yaratilishini rag'batlantiradi. "Yo'llar, temir yo'l, portlar va aloqa vositalarining yetarli emasligi korxonalar xarajatlarni oshirib, raqobatbardoshlikni susaytiradi"<sup>1</sup>. Bundan ko'rinadiki, tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun zamonaviy infratuzilma tizimini kengaytirish va uni ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Global iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda infratuzilmadan foydalanishning nazariy asoslarini ochib berishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda infratuzilmaning ishlab chiqarish xarajatlari, bozorlarga kirish, institutsional sifat va innovatsion faollikka ta'sir mexanizmlarini tizimli asoslash yo'nalishida izchil olib borilmoqda. Infratuzilmani "ijtimoiy kapital" sifatida iqtisodiy o'sish va korxonalar mahsuldorligiga ta'sir etuvchi omil nuqtayi nazaridan modellashtirish, yangi institutsional iqtisodiyot doirasida infratuzilmaning tranzaksion xarajatlari va biznes muhiti (tartibga solish sifati)ga ta'sirini nazariy asoslash, hududiy iqtisodiyot va aglomeratsiya nazariyasida transport-logistika infratuzilmasining klasterlashuv va kichik tadbirkorlik o'sishiga ta'sirini tahlil qilish, innovatsiya tizimlari va endogen o'sish yondashuvlarida raqamli infratuzilmaning texnologik diffuziya, startap ekotizimi va inson kapitaliga ta'sirini asoslash, moliyaviy infratuzilma (to'lov tizimlari, kredit axboroti, kafolat institutlari)ning moliyaviy inklyuziya orqali tadbirkorlik dinamikasiga ta'sirini konseptuallashtirish muammolari bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda infratuzilmadan samarali foydalanish bo'yicha belgilangan vazifalar, avvalo, erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini muhandislik-kommunikatsiya (elektr, gaz, suv, yo'l), logistika va raqamli xizmatlar bilan to'liq ta'minlash, "yagona direksiya" va "yagona darcha" tamoyillari orqali biznesga xizmat ko'rsatish jarayonlarini jadallashtirish hamda moliyaviy infratuzilmasini (kredit, kafolat, sug'urta) kuchaytirishga qaratilmoqda. Amalda esa sanoat zonalarini boshqarish tizimini takomillashtirish, zonalarda tayyor ishlab chiqarish binolari va servis infratuzilmasini yaratish hamda tadbirkorlar uchun moliyaviy resurslarga kirishni kengaytirish chora-tadbirlari faollashtirilgan. Xususan, davlat siyosatida "2026–2027-yillarda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-

---

<sup>1</sup> [https://archive.doingbusiness.org/content/dam/doingBusiness/media/Annual-Reports/English/DB13-Chapters/About-Doing-Business.pdf?utm\\_source](https://archive.doingbusiness.org/content/dam/doingBusiness/media/Annual-Reports/English/DB13-Chapters/About-Doing-Business.pdf?utm_source)

quvvatlash, zarur moliyaviy va infratuzilmaviy sharoitlarni yaratish uchun jami 270 trillion so‘m yo‘naltirilsin”<sup>2</sup> vazifalari belgilangan. Shuning uchun ushbu vazifalar ijrosida infratuzilmaning tadbirkorlik natijalariga (xarajatlar, tezkorlik, bozorga chiqish, bandlik) ta‘sirini baholash va samaradorlik mezonlarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF–16-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF–37-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 31-martdagi PQ–110-son “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 8-apreldagi PQ–209-son “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish va biznes muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 13-oktabrdagi PQ–4862-son “Hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining bandligini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 11-apreldagi PQ–4277-son “Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda ushbu sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tadbirkorlik samaradorligini oshirishda infratuzilmadan foydalanishning nazariy asoslari xorijiy mamlakatlar olimlari E.V.Xechiyev, V.M.Geets, M.Torrance, J.R.Bryson, R.A.Mulhall, M.Song, P.Y.Loo, R.J.Dawson, D.F.Rogers, E.Aykana, Yoshino, Naoyuki va boshqalarning tadqiqotlarida o‘rganilgan<sup>3</sup>.

Infratuzilmani rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari o‘zbekistonlik olimlardan U.Gafurov, R.Karlibayeva, B.Salimov, B.Berkinov, I.Tursunov, M.Tashxodjayev, Z.Ashurov, H.Hasanov, F.Jurayev, U.Abidhadjayev va Q.Sharipov kabi olimlarning ilmiy nashrlarida o‘z aksini topgan<sup>4</sup>.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. - [https://president.uz/oz/lists/view/8394?utm\\_source](https://president.uz/oz/lists/view/8394?utm_source)

<sup>3</sup> Хечиев Е.В. Типология инфраструктурных ограничений развития бизнеса // Via in tempore. История. Политология. 2009. №1 (56). (дата обращения: 18.07.2022). Геец В. М. Общество, государство, экономика: феноменология взаимодействия и развития [монография] / В. М. Геец.- К.: НАН Украины, 2009 - 864 с. Torrance, M., 2009. The rise of a global infrastructure market through relational investing. *Econ. Geogr.* 85 (1), 75–97. Bryson, J. R., Mulhall, R. A., Song, M., Loo, B. P. Y., Dawson, R. J., & Rogers, C. D. F. (2018). Alternative-substitute business models and the provision of local infrastructure: Alterity as a solution to financialization and public-sector failure. *Geoforum*, 95, 25–34. doi:10.1016/j.geoforum.2018.06.022. E. Aykana, S. Aksoylu, and E. Sönmez, “Effects of Support Programs on Corporate Strategies of Small and Medium-Sized Enterprises”, in *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, iss. 99, pp. 938-946, 2013. Yoshino, Naoyuki, and Umid Abidhadjaev (2015). *An Impact Evaluation of Investment in Infrastructure: The Case of the Railway Connection in Uzbekistan*.

<sup>4</sup> Гафуров У.В. (2016). Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Монография. Т.: Молия, 208(6). Р.Х. Карлибаева, Energetika infratuzilmasini Bakhtiyor

Infratuzilmani rivojlantirish orqali tadbirkorlikni rivojlantirish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu yo'nalishda bahsli, yetarlicha ilmiy o'rganilmagan holatlar mavjud. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining xususiyatlarini inobatga olgan holda olib borilgan tadqiqot ishlari tor doirada qolmoqda. Shunga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotida yuqoridagi holatni tadqiq etish zarurati, tadqiqot mavzusini tanlash uchun asos bo'ldi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Mazkur ilmiy tadqiqot ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda infratuzilmadan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, ularni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish yuzasidan ilmiy takliflar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda infratuzilmadan foydalanishning nazariy asoslariga bog'liq tadqiqotlarni o'rganish va adabiyotlar sharhini amalga oshirish;

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini hududlar kesimida tahlil qilish va differensial takliflar ishlab chiqish;

O'zbekistonda tadbirkorlikning samarali faoliyati uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash bilan bog'liq muammolarini tadqiq etish;

tadbirkorlik subyektlari samaradorligiga bevosita hamda bilvosita infratuzilmaning ta'sirini ekonometrik baholash;

tadbirkorlik infratuzilmasini takomillashtirishning xorij tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlarini o'rganish;

tadbirkorlik samaradorligini oshirish infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;

tadbirkorlik samaradorligining 2030-yilgacha bo'lgan muqobil prognozlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** bo'lib, O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda infratuzilmadan foydalanish bilan bog'liq hodisa va

---

Salimov, Rukhsora Kholikova, Shoh-Jakhon Khamdamov, Abdurakhim Turaev, Jamshid Tukhtabaev, Nargiza Nosirova, and Dilrabo Akhmedova. 2024. Strategies for Integrating Digitalization in Leveraging Regional Economic and Scientific Expertise for the Innovative Growth of Small and Medium Enterprises. In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (ICFNDS '23). Association for Computing Machinery, New York, NY, USA, 483–490. <https://doi.org/10.1145/3644713.3644784>, Berkinov B.B., Aynaqulov M.A. "Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi". Monografiya - Jizzax.: 2004-114 b., M.M. Tashxodjaev, Z.A. Ashurov. Ishlab chiqarish infratuzilmasi: daralik / O'zbekiston Respublikasi Oliy va urta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2014.-160 b., Nabibullo Hasanov, "Economic effects of business infrastructure digitalization" march 2021, Conference: Development issues of innovative economy in the agricultural sector, Samarkand., Yoshino, Naoyuki, and Umid Abidhadjaev (2015). *An Impact Evaluation of Investment in Infrastructure: The Case of the Railway Connection in Uzbekistan*. Retrieved from <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/175724/adbi-wp-548.pdf>. Accessed on 12.07.2021., Juraev, Farrukh (2021). *Key priorities of Uzbekistan for the comprehensive development of transport corridors in Central Asia*. Retrieved from <http://isrs.uz/en/maqolalar/klucevye-priority-uzbekistana-po-vsestoronnemu-razvitiu-transportnyh-koridorov-v-centralnoj-azii>. Accessed on 12.07.2021. Шарипов, К. (2023). КИЧИК ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАРМОҚ БЎЙИЧА ИХТИСОСЛАШУВ ЖАРАЁНИ ТАЪСИРИНИНГ НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ. In *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss8-pp344-352>

jarayonlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda infratuzilmadan foydalanish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishini bajarishda ilmiy mushohada, statistik guruhlash, qiyosiy va tizimli tahlil, ilmiy mantiqiy umumlashtirish, matematik modellashtirish, ekonometrik tahlil hamda prognozlashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiliklari** quyidagilardan iborat:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "infratuzilma" tushunchasining iqtisodiy mazmuni iqtisodiy tizimda ishlab chiqarish omillari, tovarlar, xizmatlar, axborot va moliyaviy resurslar harakatini ta'minlovchi hamda jamiyatda takror ishlab chiqarish jarayonining mutanosibli, tezkorligi va samaradorligini belgilab beruvchi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar va shart-sharoitlar majmui nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan energiya barqarorligi, ulanish muddati va qiymati, logistika xarajatlari, internet sifati ko'rsatkichlari asosida hisoblanuvchi hududiy infratuzilma indeksi yordamida infratuzilmaga ajratiladigan resurslarni eng past indeksli hududlarga ustuvor ravishda yo'naltirish orqali tadbirkorlik samaradorligidagi hududiy farqni qisqartirish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishga kuchli va barqaror ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi "bevosita" infratuzilma omillari bilan bir qatorda, ta'lim, sog'liqni saqlash, raqamli infratuzilma va ijtimoiy muhit kabi "bilvosita" infratuzilma tarkibiy qismlarini rivojlantirishga e'tibor qaratishda ustuvorlik berish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda infratuzilma tizimining rivojlanishi ta'sirida tadbirkorlik faoliyatidagi o'zgarishlarning eksponensial vaqtli qatorlar va o'rtacha tortilgan harakatlanuvchi modellar yordamida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

infratuzilmaning tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishidagi ahamiyati ochib berilgan;

infratuzilmaning turlari bo'yicha tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri aniqlangan;

infratuzilmaning tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini baholash borasidagi uslubiy yondashuvlar tizimli ravishda asoslangan;

hududlarda samaradorlikning shakllanganlik darajasiga ko'ra ularni tabaqalash asosida baholanishi ilmiy asoslangan;

infratuzilmani bevosita hamda bilvosita guruhlariga ajratilgan holda tadbirkorlik samaradorligiga ta'siri o'rganilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Mazkur dissertatsiya natijalari va olingan ilmiy yangiliklarning ishonchliligi tadqiqotni bajarishda umume'tirof etilgan usul va uslubiyatlarning qo'llanilganligi, rasmiy axborot bazalaridan, xususan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy saytlari ma'lumotlaridan foydalanilganligi, tadqiqot ilmiy yangiliklarining vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan

ma'qullanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mazkur tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalardan o'rta va uzoq muddatli istiqbolda hududlarda tadbirkorlik faoliyati uchun zarur infratuzilmani yaratish muammolarini chuqur tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mazkur tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan taklif va amaliy tavsiyalardan tadbirkorlik samaradorligiga ta'sir etuvchi infratuzilma obyektlarini rivojlantirish, hududlarning kompleks chora-tadbirlar majmuyini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** tadbirkorlikni rivojlantirishda infratuzilma faoliyatidan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalar asosida:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "infratuzilma" tushunchasining iqtisodiy mazmuni iqtisodiy tizimda ishlab chiqarish omillari, tovarlar, xizmatlar, axborot va moliyaviy resurslar harakatini ta'minlovchi hamda jamiyatda takror ishlab chiqarish jarayonining mutanosibli, tezkorligi va samaradorligini belgilab beruvchi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar va shart-sharoitlar majmui nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ishlanmalardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Iqtisodiyot va biznes" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda "iqtisodiy o'sishning daromadlar tengsizligiga ta'siri"ning iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan energiya barqarorligi, ulanish muddati va qiymati, logistika xarajatlari, internet sifati ko'rsatkichlari asosida hisoblanuvchi hududiy infratuzilma indeksi yordamida infratuzilmaga ajratiladigan resurslarni eng past indeksli hududlarga ustuvor ravishda yo'naltirish orqali tadbirkorlik samaradorligidagi hududiy farqni qisqartirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-287-son Farmonida inobatga olingan (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2026-yil 26-martdagi 01-06-30-2848-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududiy infratuzilma indeksi yordamida infratuzilmaga ajratiladigan resurslarni eng past indeksli hududlarga ustuvor ravishda yo'naltirish orqali tadbirkorlik samaradorligidagi hududiy farqni qisqartirish imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishga kuchli va barqaror ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi "bevosita" infratuzilma omillari bilan bir qatorda, ta'lim, sog'liqni saqlash, raqamli infratuzilma va ijtimoiy muhit kabi "bilvosita" infratuzilma tarkibiy qismlarini rivojlantirishga e'tibor qaratishda ustuvorlik berish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish va ularni muhandislik-kommunikatsiya

infratuzilmasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-271-son Qarorining 2022-yilda maxsus iqtisodiy, kichik sanoat zonalari, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari hamda to'g'ridan to'g'ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash tadbirlari yig'ma parametrlarini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2026-yil 26-martdagi 01-06-30-2848-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida maxsus iqtisodiy zonalar, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari hamda kichik sanoat zonalari bevosita infratuzilma tarkibiga kiruvchi ichimlik va oqova suv tarmoqlarini, avtomobil yo'llarini, tabiiy gaz tarmoqlarini hamda irrigatsiya tarmog'ini qurishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

O'zbekistonda infratuzilma tizimining rivojlanishi ta'sirida tadbirkorlik faoliyatidagi o'zgarishlarning eksponensial vaqtli qatorlar va o'rtacha tortilgan harakatlanuvchi modellar yordamida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasining 2022–2024-yillarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi loyihasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2026-yil 26-martdagi 01-06-30-2848-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning 2023–2024-yillar uchun maqsadli mo'ljallarga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda 6 ta ilmiy maqola (4 ta mahalliy, 2 ta xalqaro nashrlarda), 6 ta ma'ruza tezislari ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Mazkur dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, jami 129 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmeti shakllantirilgan. Shuningdek, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, shu bilan birga, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda infratuzilmadan samarali foydalanishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “infratuzilma” tushunchasi mazmunini va u rivojlanishining tadbirkorlik faoliyati rivojlanishidagi o'rni yoritilgan va amaliy natijalari izohlangan hamda tadqiqot natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan.

Infratuzilma termini to'g'risidagi ayrim mulohazalar<sup>5</sup>

Muallif	Mulohaza
O.A. Galochkina	Tadbirkorlik infratuzilmasi – bu tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy, institutsional, moliyaviy va axborot sharoitlar tizimidir. U ishlab chiqarish, moliya, axborot va konsalting xizmatlarini o'z ichiga oladi
I.V. Razumova	Tadbirkorlik infratuzilmasi – iqtisodiyotda tadbirkorlik subyektlarini samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan moddiy, institutsional va axborot vositalari yig'indisi bo'lib, u bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi
E.V. Xechiev	Infratuzilma – bu iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, unga ishlab chiqarish jarayonini samarali yo'lga qo'yish, tovar va xizmatlar harakatini ta'minlash hamda bozor munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi korxonalar, tashkilotlar va ularning faoliyatlari majmui kiradi <sup>6</sup>
V.M. Geets	Infratuzilma shunchaki alohida sohalar majmui emas, balki ishlab chiqarish jarayonlari va ijtimoiy hayotning barqaror hamda samarali rivojlanishini ta'minlaydigan muhim shart-sharoitlar tizimi hisoblanadi <sup>7</sup>
G.R. Natroshvili	Infratuzilma – bu ma'lum bir hududda resurslar, tovarlar va xizmatlarning erkin harakatini ta'minlovchi hamda aholining barqaror va qulay turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiluvchi tizimlar, muassasalar va faoliyat turlarining murakkab majmuasidir
V.Ya. Fedoritova	Infratuzilma – bu moddiy ne'matlarni takror ishlab chiqarish jarayonini hamda insonning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydigan umumiy shart-sharoitlar va tarmoqlar majmuasidir
X. Tajimuratov, H. Hasanov	Tadbirkorlik infratuzilmasi – bu tadbirkorlik subyektlarining barqaror, uzluksiz va samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratadigan hamda ularga bevosita xizmat ko'rsatuvchi institutlar, tashkilotlar va tizimiy elementlar majmuasidir

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining eng asosiy jabhalaridan biri – bu kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Sababi ular sonining qanchalik ko'p va raqobatbardosh bo'lishi aholining doimiy ish o'rinlari va daromadga ega bo'lishiga yordam beradi va eng asosiysi, iqtisodiy farovonlikni kafolatlaydi. Iqtisodiyot tarixidagi eng buyuk mutafakkirlardan biri A.Smit aytganidek, insonni harakatga keltiruvchi kuch – bu egoizm, o'z manfaatlarini boshqalarnikidan ustun qo'yishdir. Ammo u buni normal holat sifatida qabul qiladi va “inson o'z manfaatlarini o'ylab harakat qilari ekan, shuning barobarida beixtiyor boshqalarga ham naf keltiradi”, deya ijobiy xulosaga keladi. Tadbirkorlik faoliyati aynan olim aytgan fikrlarga mos bo'lib, dastlab u o'z manfaatlari yo'lida harakatga keladi va

<sup>5</sup> Malumotlar muallif tomonidan shakllantirilgan.

<sup>6</sup> Хечиев Е.В. Типология инфраструктурных ограничений развития бизнеса // Via in tempore. История. Политология. 2009. №1(56). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tipologiya-infrastrukturyh-ogranicheniy-razvitiya-biznesa> (дата обращения: 18.07.2022).


<sup>7</sup> Геец В.М. Общество, государство, экономика: феноменология взаимодействия и развития [монография] / В.М.Геец. — К.: НАН Украины, 2009. — 864 с.

boshqalarga turli ko‘rinishlarda foyda keltiradi. Zamonamizda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan yoki mavjud faoliyat egasi bo‘lgan insonlar uchun ular faoliyatini yangidan boshlash yoki yanada kengaytirishda eng asosiy omillardan biri – bu infratuzilma hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi tashqi va ichki beqarorliklar sharoitida, mavjud infratuzilmani yanada rivojlantirishning ahamiyati ortib bormoqda.

Tadbirkorlik salohiyati turli islohotlar orqali amalga oshirila boshlandi. “Yagona darcha” litsenziyasi va soliq ma’muriyatchiligi tizimi, litsenziya va ro‘yxatga olish tartib-taomillarining soddalashtirilgani, korxonalarni davlat tomonidan tekshirishning sezilarli darajada qisqartirilgani tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlardan biridir.

“Infratuzilma” atamasiga qator olimlar tomonidan izohlar va ta’riflar berilgan. 1-jadvalda shulardan ayrimlariga to‘xtalib o‘tiladi.

Yuqorida keltirilgan ayrim infratuzilma xususidagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib aytish mukinki, mazkur terminologiya uchun aniq bir qoida tariqasida keltirilgan ta’rif mavjud emas. Yuqoridagi qarashlardan kelib chiqib, infratuzilma uchun quyidagicha ta’rif berishimiz mumkin: infratuzilma – bu ijtimoiy-iqtisodiy hayot rivojlanishi va farovonligi uchun xizmat qiluvchi shart-sharoitlar yig‘indisidir.<sup>8</sup>




**1-rasm. Iqtisodiy infratuzilmaning takror ishlab chiqarish jarayonidagi o‘rni va iqtisodiy -ijtimoiy natijalarga ta’sir etishning konseptual sxemasi<sup>9</sup>**

<sup>8</sup> Mualliflik ta’rifi

<sup>9</sup> Ma’lumotlar muallif tomonidan shakllantirilgan.

“Infratuzilma” tushunchasining iqtisodiy mazmuni iqtisodiy tizimda ishlab chiqarish omillari, tovarlar, xizmatlar, axborot va moliyaviy resurslar harakatini ta’minlovchi hamda jamiyatda takror ishlab chiqarish jarayonining mutanosibli, tezkorligi va samaradorligini belgilab beruvchi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar va shart-sharoitlar majmui.

“Iqtisodiy infratuzilma” atamasi iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish va jadallashtirish uchun zarur bo‘lgan yo‘llar, telekommunikatsiyalar, elektr liniyalari, avtomobil yo‘llari, poyezdlar, dengiz portlari, aeroportlar ta’minoti va sanitariya kabi infratuzilma turini anglatadi. Aksincha, ijtimoiy infratuzilma deganda, inson farovonligi va turmush darajasini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan infratuzilma shakllari tushuniladi. Bunday ijtimoiy infratuzilma aholining sog‘lig‘ini saqlash, ta’lim va madaniyat me’yorlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Ijtimoiy infratuzilmaga parklar, kutubxonalar, shifoxonalar va universitetlar kiradi.



**2-rasm. Bevosita va bilvosita infratuzilmalarning tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liqligi<sup>10</sup>**

2-rasmdan ko‘rish mumkinki, “bevosita” hamda “bilvosita” infratuzilmalar tadbirkorlik sohasiga samaradorlik jihatidan ikki xil: kapital va ishchi kuchi orqali ta’sir etishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Tadbirkorlik faoliyati va ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan ta’minlanganlik holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston, xususan, Surxondaryo viloyatida tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi uchun mavjud ayrim infratuzilma turlari holati, undagi samaradorlik hamda tafovutlar tahlil qilingan.

Tadbirkorlikda samaradorlikni aniqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi saytidan dastlab nominal yalpi ichki mahsulot hajmi, yalpi ichki mahsulot deflyatorlari, tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi hamda tadbirkorlikda bandlik bo‘yicha ma’lumotlar olindi. So‘ngra ulardan foydalanib real yalpi ichki mahsulot hajmi, tadbirkorlikda yaratilayotgan tovar va xizmatlar hajmi

<sup>10</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.

hamda tadbirkorlikdagi samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlandi.

Tadbirkorlikda ishchi kuchi samaradorligini foizda ifodalab olamiz. Buning uchun quyidagicha formulani shakllantirib olamiz:

$$\text{TIKS}_{i,t}^{\%} = \left( \frac{\text{TIKS}_{i,t}}{\text{TIKS}_{i,t-1}} - 1 \right) * 100 \quad (1)$$

bu yerda:

$\text{TIKS}_{i,t}^{\%}$  – i-hududning t-yildagi samaradorlik o'sish sur'ati (%);

$\text{TIKS}_{i,t}$  – i-hududning t-yildagi ishchi kuchi samaradorligi;

$\text{TIKS}_{i,t-1}$  – i-hududning oldingi yildagi samaradorligi.

2-jadval ma'lumotlari 2011–2025-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi va uning hududlarida iqtisodiy samaradorlik (yoki o'sish ko'rsatkichlari) dinamikasini aks ettiradi. Umuman olganda, mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 3,84 foizni tashkil etib, bu davr mobaynida iqtisodiy faollikning nisbatan barqaror, biroq o'zgaruvchan bo'lganligini ko'rsatadi. Ayrim yillarda, xususan 2017- va 2019-yillarda ayrim viloyatlar kesimida salbiy qiymatlar kuzatilgan bo'lsa-da, umumiy tendensiya 2020-yildan keyingi davrda ijobiy yo'nalishda shakllangan. Bu holat pandemiya davrida yuzaga kelgan inqirozdan so'ng iqtisodiyotda tiklanish jarayonlari kuchayganini anglatadi.

Hududlar kesimida esa sezilarli tafovutlar mavjud. Masalan, Buxoro (6,14 %), Navoiy (6,76 %) va Toshkent shahri (6,50 %) viloyatlari nisbatan yuqori o'rtacha o'sish sur'atlarini qayd etgan bo'lib, bu ularning sanoat salohiyati, investitsion muhit va infratuzilma rivojlanishiga bog'liq. Aksincha, Qashqadaryo (2,68 %), Samarqand (2,67 %) va Xorazm (3,73 %) viloyatlarida o'sish sur'atlarining pastligi iqtisodiy faoliyatning barqaror emasligini hamda ishlab chiqarish va xizmatlar sektorida tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Umuman, hududlar o'rtasidagi bu tafovutlar iqtisodiy siyosatda differensial yondashuv zarurligini va resurslarni hududiy xususiyatlardan kelib chiqib taqsimlash lozimligini anglatadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududlarida tadbirkorlikda samaradorlik ko'rsatkichlari kartogrammasi ishlab chiqildi. Buning uchun hududlarning 2011–2025-yillar oralig'idagi natijalari o'rtachasi asos qilib olindi hamda natural breaks (Jenks) usulidan foydalanib toifalarga ajratildi. Va quyidagi metodologiya orqali amalga oshirildi:

Asosiy tushunchalar:

$x_1, x_2, \dots, x_n$  – hududlarning qiymatlari (o'rtacha qiymatlar);

$k$  – guruhlar soni ( $k=5$ ).

Variatsiyani quyidagicha hisoblanadi: Umumiy kvadratlar yig'indisi (Total sum of squares, TSS)

$$\text{TSS} = \sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2 \quad (2)$$

bu yerda:  $\bar{x}$  – umumiy o'rtacha qiymat.

Guruh ichidagi kvadratlar yig'indisi (Within-class sum of squares, WSS)ni quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{WSS} = \sum_{j=1}^k \sum_{x_i \in C_j} (x_i - \bar{x})^2 \quad (3)$$

bu yerda:

$C_j$  – j-guruh;

$\bar{x}$  – j-guruhdagi o‘rtacha qiymat.

Jenks algoritmi WSS minimal, BSS maksimal bo‘lgandagi chegaralarni topish orqali optimallashtirish mezonini aniqlaydi.

Navbatdagi qadamda biz natijani baholash uchun GVF (Jenks optimization goodness-of-variance-fit) ni hisoblaymiz:

$$GVF=(TSS-WSS)/TSS \quad (4)$$


Natija qanchalik 1 ga yaqinlashsa guruhlash shunchalik yaxshi bo‘lganini bildiradi. Jenks usuli orqali hududlarni 5 ta guruh ajratildi. Har bir guruh chegaralari shunday tanlandiki, guruh ichida dispersiya minimal, guruhlar orasida maksimal farq bo‘ldi. Shuningdek, quyidagi natijalarga ega bo‘lindi:

2-jadval

Jenks mezonlarining o‘rtacha qiymatlari<sup>11</sup>

TSS	WSS	GVF
22.68	2.58	0.88

Jenksning tabiiy taqsimot usuli asosida 2011–2025-yillar oralig‘idagi tadbirkorlik samaradorligi ko‘rsatkichlari hududlar bo‘yicha 5 guruhga ajratildi. Natijalarga ko‘ra, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlari eng past samaradorlik (1-guruh)da joylashgan bo‘lsa, Jizzax, Namangan, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari pastroq ko‘rsatkichga ega (2-guruh). Qoraqalpog‘iston, Sirdaryo, Toshkent viloyati va Farg‘ona o‘rtacha darajadagi samaradorlikni ko‘rsatib, 3-guruhda joylashdi. Andijon va Buxoro yuqoriroq ko‘rsatkichga ega bo‘lib, 4-guruhga kiradi.



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasi hududlari infratuzilma indeksi kartogrammasi (2011–2025 yillar oralig‘ida o‘rtacha), (foizda)

<sup>11</sup> Stata14@ dasturi yordamida tayyorlandi.

Eng yuqori samaradorlik esa Navoiy viloyati va Toshkent shahrida kuzatilib, ular 5-guruhda joylashgan. Bu natijalar hududlar o'rtasida sezilarli tafovut mavjudligini va tadbirkorlik samaradorligi hududiy jihatdan notekis taqsimlanganini ko'rsatadi. Shuningdek, natijalarni kartogramma ko'rinishida aks ettirildi (3-rasm).

Modelimizning birinchi qismida mehnat samaradorligini ifodalovchi *Samishchi* konstruktining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni baholanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, internet abonentlari sonining ortishi mehnat samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu ko'rsatkichning statistik ahamiyatli va ijobiy ta'siri hududlarda raqamli infratuzilmaning kengayishi mehnat bozorida samarali bandlikni kuchaytirayotganini anglatadi. Internetga ulanish imkoniyati kengaygani sari korxonalar va xodimlar o'rtasida axborot almashinuvi tezlashadi, xizmat ko'rsatish jarayonlari optimallasadi hamda mehnat unumdorligi oshadi. Shu bois, mazkur omil modelimizning eng barqaror va kuchli omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

$$\text{Samishchi} = 0.01114 \cdot \text{abonent} + 0.00018 \cdot \text{OTMbitir} - 0.11816 \cdot \text{Shifourin} + 0.00118 \cdot \text{Yultashish} - 8.41626 + e_i. \quad (5)$$

Shuningdek, yo'lovchi tashish hajmi (Yultashish) bilan mehnat samaradorligi o'rtasida ijobiy bog'liqlik kuzatiladi. Bu holat transport infratuzilmasi mehnat bozoriga qo'shimcha qulayliklar yaratishini, ishchi kuchining hududlar orasida harakatlanishi osonlashishini ko'rsatadi. Transport xizmatlarining rivojlanishi korxonalar uchun ishchi kuchi tanlovini kengaytiradi va shu orqali ishlab chiqarish jarayonlarida unumdorlik ortadi. Modelimizda ushbu bog'liqlik nisbatan past darajada bo'lsa-da, iqtisodiy mantiq bilan to'la mos keladi.

### 3-jadval

#### Birinchi tenglama bo'yicha SEM modeli natijalari<sup>12</sup>

Variable	Coef.	Std. Err.	z	P> z	95% CI
abonent	0.0111418	0.0027016	4.12	0.000	0.00585 – 0.01644
OTMbitir	0.0001793	0.0010543	0.17	0.516	-0.001887 – 0.002246
Shifourin	-0.118159	1.224165	-0.10	0.923	-2.51748 – 2.28116
Yultashish	0.0011774	0.0010403	1.13	0.025	-0.000861 – 0.003216
cons	-8.416263	6.699303	-1.26	0.209	-21.5467 – 4.71413

Oliy ta'lim bitiruvchilari (OTMbitir) va sog'liqni saqlash infratuzilmasi (Shifourin) ko'rsatkichlarining ta'siri statistik jihatdan yuqori ahamiyat kasb etmagan. Bu natija ushbu omillarning qisqa muddatda mehnat samaradorligiga darhol ta'sir ko'rsatmasligini, ta'sir mexanizmi ko'proq uzoq muddatli va bilvosita bo'lishini anglatishi mumkin. Jumladan, oliy ta'lim bitiruvchilarining mehnat bozoriga kirib borishi, yangi ish o'rinlariga moslashishi vaqt talab qiladi. Sog'liqni saqlash infratuzilmasining ta'siri ham mehnat unumdorligiga bevosita emas, balki umumiy inson kapitali salohiyatini oshirish orqali amalga oshadi.

Modelimizning ikkinchi qismi kapital samaradorligiga ta'sir etuvchi infratuzilma omillarining rolini baholaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, elektr energiyasi iste'moli (Eneristem) va suv infratuzilmasi (Infrasuv) ko'rsatkichlari

<sup>12</sup>Jadval natijalari muallif tomonidan Stata 14 dasturi yordamida hisoblandi

kapital samaradorligiga ijobiy yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatmoqda. Elektr energiyasi bilan barqaror ta’minlash iqtisodiy faoliyatning uzluksiz jarayonini ta’minlashi tufayli kapitaldan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Suv ta’minoti infratuzilmasining rivoji ham ishlab chiqarish jarayonining barqarorligini oshiruvchi muhim omillardan biridir. Ikkala ko‘rsatkichning ta’siri iqtisodiy mantiqqa mos ravishda modelimizda o‘z ifodasini topgan.

#### 4-jadval

##### Ikkinchi tenglama bo‘yicha SEM modeli natijalari<sup>13</sup>

Variable	Coef.	Std. Err.	z	P> z	95% CI
Korxinter	2.414275	5.855696	0.41	0.060	-9.06268 – 13.8912
Eneristem	0.0017557	0.0102358	0.17	0.024	-0.01831 – 0.02182
Infrasuv	0.1215176	0.0822239	1.48	0.019	-0.03964 – 0.28267
Yukaylanma	-0.8146433	2.165096	-0.38	0.707	-5.05815 – 3.42887
cons	146.5997	237.4052	0.62	0.537	-318.706 – 611.905

Korxonalarining internetga ulanish darajasi (Korxinter) kapital samaradorligiga kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatsa-da, statistik barqarorlik darajasi past bo‘lgan. Bu holat raqamli infratuzilma iqtisodiy samaradorlikka bevosita emas, balki ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiyasi, avtomatlashtirish va resurslarni tejashga yo‘naltirilgan texnologik o‘zgarishlar orqali bilvosita ta’sir qilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

$$\text{Samkap} = 2.41428 \cdot \text{Korxinter} + 0.00176 \cdot \text{Eneristem} + 0.12152 \cdot \text{Infrasuv} - 0.81464 \cdot \text{Yukaylanma} + 146.5997 + e_z. \quad (6)$$

Yuk tashish hajmi (Yukaylanma) esa kapital samaradorligi bilan teskari bog‘liqlikni ko‘rsatgan. Bu natija transport infratuzilmasidagi ortiqcha yuklanish yoki logistika tizimining samaradorligi past bo‘lgan hududlarda kapitalning to‘liq ishlatilmasligi bilan izohlanishi mumkin. Yuqori yuk aylanmasi har doim ham logistika samaradorligining yuqoriligidan dalolat bermaydi; aksincha, transport tarmoqlarining ortiqcha bandligi ishlab chiqarish jarayonlarida kechikishlar, xarajatlarning oshishi va kapitaldan foydalanish samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Modelimizning yakuniy qismi mehnat samaradorligi (Samishchi) va kapital samaradorligi (Samkap)ning umumiy iqtisodiy samaraga (Yalpisam) ta’sirini aks ettiradi. Natijalarga ko‘ra, har ikkala omilimiz sezilarli ta’sirga ega: mehnat samaradorligi iqtisodiy natijani kuchliroq darajada shakllantiradi, kapital samaradorligi esa qo‘shimcha ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu munosabat iqtisodiy tizimda mehnat va kapitalning komplementar resurslar ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Ishchi kuchi samaradorligi ortib borgani sari korxonalar resurslardan oqilona foydalanadi, ishlab chiqarish jarayonlari optimallasadi, yangi texnologiyalarni joriy etish imkoniyati kengayadi. Kapital samaradorligining o‘shishi esa mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq va tejamkor foydalanish imkonini yaratadi va shu orqali umumiy iqtisodiy natijalar yaxshilanadi.

<sup>13</sup>Jadval natijalari muallif tomonidan Stata 14 dasturi yordamida hisoblandi

Uchinchi tenglama bo'yicha SEM modeli natijalari<sup>14</sup>

Variable	Coef.	Std. Err.	z	P> z	95% CI
Samishchi	1.912611	0.4293828	4.45	0.000	1.07104 – 2.75419
Samkap	0.1601878	0.0590157	2.71	0.007	0.04452 – 0.27586
_cons	67.15579	10.99305	6.11	0.000	45.6098 – 88.7018

4-jadval modeldagi xatolik dispersiyalari konstruktlar ichidagi tushuntirilmagan dispersiyaning qay darajada ekanini ko'rsatadi. Mehnat samaradorligi bo'yicha xatolik past bo'lib, modelning ushbu konstruktini yaxshi izohlashini bildiradi. Kapital samaradorligida esa xatolik nisbatan yuqori bo'lib, infratuzilmadan tashqari omillar — texnologik daraja, korxonalarining ichki boshqaruvi, bozor sharoitlari kabi omillar muhim o'rin tutishini anglatadi.

$$\text{Yalpisam} = 1.91261 \cdot \text{Samishchi} + 0.16019 \cdot \text{Samkap} + 67.15579 + e_3. \quad (3)$$

Ushbu tadqiqotda qurilgan SEM modeli natijalari infratuzilmaning mehnat samaradorligi va kapital samaradorligiga bevosita hamda bilvosita ta'sir ko'rsatishini namoyish etdi. Mazkur topilmalarni turli ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan solishtirish, modelning nazariy asoslanganlik darajasini aniqlashga imkon beradi.

Surxondaryo viloyatida tadbirkorlikning samaradorlik ko'rsatkichlari<sup>15</sup>

Yillar	Mahsulot sotishdan tushgan sof tushum, mlrd so'm (X1)	Sof foyda (zarar), mlrd so'm (X2)	Mahsulot tannarxi, mlrd so'm (X3)	Asosiy vositalarga investitsiya, mlrd so'm, (X4)	Bandlar, ming kishi (X5)	Bandlik samaradorligi, mln so'm ( $\frac{X1}{X5}$ )	Kapital unumdorligi, % ( $\frac{X1}{X4} \cdot 100$ )	Tannarx samaradorligi, % ( $\frac{X3}{X1} \cdot 100$ )	Sotuv rentabelligi, % ( $\frac{X2}{X1} \cdot 100$ )
2012	836,3	61,5	857,3	480,7	653,5	1,3	174	102,5	7,4
2013	958,6	50,1	1127	594,7	688,2	1,4	161,2	117,6	5,2
2014	1151	24	1381,7	773,9	720,6	1,6	148,7	120	2,1
2015	1323,3	85,7	1620	1006,7	747,3	1,8	131,4	122,4	6,5
2016	2085,6	217,6	2106,3	1206,6	778,2	2,7	172,8	101	10,4
2017	2717,1	-82,4	2693	1369,4	802,6	3,4	198,4	99,1	-3
2018	4308,5	176,3	4798,4	2866,5	781	5,5	150,3	111,4	4,1
2019	6925,7	304,1	6429,8	8677,8	814,9	8,5	79,8	92,8	4,4
2020	7965,8	-24	8611,4	4318,7	770,3	10,3	184,4	108,1	-0,3
2021	9991	360,7	12833,9	5744,3	785,5	12,7	173,9	128,5	3,6
2022	11406	-58,2	14637,6	5728,4	773,6	14,7	199,1	128,3	-0,5
2023	14012,2	262,3	16818,5	10600,2	776,1	18,1	132,2	120	1,9
2024	19625,3	381,3	21052	7982,5	792,3	24,8	245,9	107,3	1,9


<sup>14</sup>Jadval natijalari muallif tomonidan Stata 14 dasturi yordamida hisoblandi

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari. Nisbatlar muallif yondashuvi hisoblanadi.

2012–2024-yillarda Surxondaryo viloyatida tadbirkorlik subyektlarining sof tushumi 836,3 mlrd so‘mdan 19,6 trln so‘mgacha keskin oshgan bo‘lsa-da, mahsulot tannarxi bundan ham tezroq o‘shib, 857,3 mlrd so‘mdan 21 trln so‘mga yetgani rentabellikni sezilarli darajada pasaytirgan. Tannarxning tushumdan tez o‘shishi xarajatlar bosimi, energiya va logistika xarajatlari, xomashyo narxlari hamda operatsion samaradorlikdagi cheklovlar kuchayganidan dalolat beradi. Natijada, sof foyda ko‘rsatkichlari yillarga qarab tebrangan, ba’zi yillarda manfiy natija qayd etilgan, sotuv rentabelligi esa 7,36 foizdan 1,94 foizgacha tushgan. Shunga qaramay, bandlik samaradorligi yuqori o‘shish sur‘atlarini saqlagan: bir xodimga to‘g‘ri keladigan tushum 1,28 mln so‘mdan 24,7 mln so‘mgacha ko‘tarilgan. Kapital unumdorligi ham ijobiy tendensiyani ko‘rsatsa-da, investitsiya oqimlarining keskin tebranishi tadbirkorlikning barqaror kapital qo‘yilmalariga bog‘liq bo‘lgan risklarini oshirgan.

Bilvosita infratuzilma esa institutsional muhitni-davlat xizmatlari sifati, litsenziyalash tartibi, soliq boshqaruvi, korrupsiya darajasi, ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimi kabi omillarni qamrab oladi. Bu omillar korxonalarining bozorga kirish tezligi, yashovchanligi, risklarga bardoshlilik va investitsion jozibadorligiga bilvosita ta‘sir etadi. Shu bois tadbirkorlik samaradorligini oshirish uchun nafaqat ishlab chiqarish infratuzilmasini, balki institutsional va ijtimoiy infratuzilma sifatini ham parallel ravishda kuchaytirish zarur. Dastlab hududning *“bevosita”* infratuzilma tarkibi hamda mavjud ma‘lumotlardan foydalanib uning dinamikasi tahlil qilinadi.

2015–2024-yillarda Surxondaryo viloyatida internetga ulangan korxonalar va tashkilotlar ulushining keskin tebranishi raqamli infratuzilmaning barqaror rivojlanmayotganini ko‘rsatadi: 2015–2018-yillarda 16,9-17,9 foiz atrofida bo‘lgan nisbatan barqaror ulush 2019-yildan boshlab pasayib, 2020-yilda atigi 7,2 foizga tushgani internet sifati, tarmoq qamrovi va korxonalarining axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada cheklanganini anglatadi.



**4-rasm. Abonentlar tomonidan elektr energiya iste'moli hajmi, (mln kVt soat)<sup>16</sup>**

<sup>16</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2016–2024-yillarda Surxondaryo viloyatida abonentlar tomonidan iste'mol qilingan elektr energiyasi dinamikasi hududning iqtisodiy faolligi va ishlab chiqarish jarayonlaridagi o'zgarishlarni yaqqol aks ettiradi. 2020–2024-yillarda iste'mol hajmi qayta tiklanib, 2024-yilda 3410,9 mln kVt soatga yetishi iqtisodiy faollikning izchil, ammo mo'tadil sur'atlarda tiklanayotganini anglatadi. Umuman, elektr energiyasi iste'molidagi bunday tebranishlar hududda ishlab chiqarish jarayonlarining dinamik tabiati, xarajatlar bosimi va korxonalar samaradorligini tahlil qilishda muhim indikator sifatida xizmat qiladi.

Endigi navbatda hududning *“bilvosita”* infratuzilma bilan ta'minlanganlik holatini tahlil qilinadi.

2015–2024-yillarda Surxondaryo viloyatida shifoxona o'rinlari soni izchil o'sib, 7,5 mingdan 10 ming birlikka yetgani sog'liqni saqlash infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning barqarorligini, aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabining oshib borishini va demografik omillarning inobatga olinganini ko'rsatadi; ayniqsa, 2022-yilda 0,9 ming o'rin qo'shilishi tizimda sezilarli strukturaviy kengayish bosqichi amalga oshirilganidan dalolat beradi. Biroq ayrim yillarda, jumladan, 2019-yilda, o'sish sur'atlarining sekinlashuvi moliyaviy, tashkiliy yoki epidemiologik omillar ta'sirida infratuzilma rivojida vaqtinchalik cheklovlar bo'lganini anglatadi. Umuman, o'rinlar sonining ko'payishi hududning sog'liqni saqlash tizimi miqdoriy salohiyati mustahkamlanayotganini ko'rsatadi, biroq kelgusida tibbiy xizmat sifati, o'rinlardan foydalanish samaradorligi va hududlar kesimidagi mutanosiblik kabi sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirishga ehtiyoj mavjud.

Shu bilan birga, internetga ulangan korxonalarining soni va jinoyatlar sonining oritishi esa mos ravishda 0081 va 0893 birlikka kamayishiga olib keladi va ular o'rtasidagi ta'sir ham kuchli. Klark (2015)<sup>17</sup> olib borgan tadqiqotlarga ko'ra internetga ulanish tashkilotlarga yirik bozorlarga chiqish, ma'lumotlarni samarali olish va operatsiyalarni yaxshilash imkonini beradi. Bundan tashqari, u korxonalariga global miqyosda mijozlar bazasini kengaytirish va real vaqt rejimida mijozlar va hamkorlar bilan muloqot qilish imkonini yaratadi, natijada samaradorlik va rentabellikni oshiradi. Bundan tashqari, internet aloqasi kompaniyalarga uzoqdan ishlash siyosatini qabul qilish, qo'shimcha xarajatlarni kamaytirish va xodimlarning qoniqishini oshirish imkonini berdi.

Navbatda O'zbekiston uchun infratuzilmani rivojlantirish indeksi hisoblanadi. Infratuzilmani rivojlantirish indeksi (IDI) dastlab Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi mamlakatlarning infratuzilmani rivojlanganlik darajasini kompleks baholashdan iborat. Mazkur indeks o'z mohiyatiga ko'ra faqat bitta yo'nalish bilan cheklanmaydi, balki transport, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, suv va sanitariya, shuningdek, energetika sohalarini qamrab oladi. Shu sababli u infratuzilma tizimini bir butun

---

<sup>17</sup> Clarke, G. R., Qiang, C. Z., & Xu, L. C. (2015). The Internet as a general-purpose technology: Firm-level evidence from around the world. *Economics Letters*, 135, 24-27.

holda baholash imkoniyatini beradi. Bu metodologiyaning afzalligi shundaki, u davlatlarning rivojlanish jarayonini har bir alohida ko'rsatkich kesimida emas, balki umumiy integratsiyalashgan shaklda baholash imkonini beradi. Natijada, mamlakatlar o'rtasida qiyosiy tahlilni samarali amalga oshirish va rivojlanish strategiyalarini belgilash imkoniyati yaratiladi.

IDI metodologiyasi asosan ikki bosqichdan iborat. Birinchisi – alohida ko'rsatkichlarni standartlashtirish, ikkinchisi – ularni yagona indeks shaklida birlashtirishdir. Standartlashtirish jarayonida barcha ko'rsatkichlar 0 va 1 oralig'iga keltiriladi. Bu jarayon turli birliklarda o'lchanadigan ma'lumotlarni bir xil mezonga solishga xizmat qiladi. Masalan, elektr energiyasi ishlab chiqarish kilovatt-soatlarda, transport ko'rsatkichlari esa kilometr yoki yuk tashish hajmida bo'lishi mumkin. Shunday sharoitda ular orasidagi farqlarni to'g'ridan-to'g'ri taqqoslash imkonsizdir. Standartlashtirish odatda quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

$$Z_{ij} = \frac{X_{ij} - \min(X_j)}{\max(X_j) - \min(X_j)} \quad (7)$$

bu yerda:  $X_{ij}$  – i-davlat bo'yicha j-ko'rsatkichning haqiqiy qiymati. Natijada, barcha ko'rsatkichlar 0 va 1 oralig'iga keltiriladi.

IDI metodologiyasi shundan iboratki, har bir alohida ko'rsatkich standartlashtiriladi va umumiy indeks tarkibiga qo'shiladi.

Bunda umumiy formula quyidagicha ko'rinishda ifodalanadi:

$$IDI_i = \frac{1}{n} \sum_{j=1}^n Z_{ij} \quad (8)$$

bu yerda:

$IDI_i$  – i-davlatning infratuzilma rivojlanganlik indeksi;

$n$  – kiritilgan infratuzilma ko'rsatkichlari soni;


$Z_{ij}$  – j-ko'rsatkichning i-davlat bo'yicha standartlashtirilgan qiymati.

Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, indeks har bir yo'nalishning o'zaro teng ahamiyat kasb etishini nazarda tutadi. Bu uslubning yana bir muhim afzalligi – u oddiy, tushunarli va qiyoslashda qulaydir.

O'zbekiston uchun IDI metodologiyasini qo'llash zarurati infratuzilma islohotlarining ko'lami va murakkabligi bilan belgilanadi. So'nggi yillarda transport, energetika, AKT, suv va sanitariya tizimlari bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ularni alohida ko'rsatkichlar asosida baholash umumiy natijadorlikni to'liq aks ettirmaydi. Shu sababli IDI kabi integral metodologiya qo'llash ilmiy jihatdan asosli bo'lib, infratuzilmaning kompleks rivojlanish darajasini baholash imkonini beradi. Shuningdek, Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitda O'zbekistonning infratuzilma salohiyatini mintaqaviy va xalqaro mezonlar asosida baholash zarurati ortib bormoqda; bu borada IDI xalqaro darajada sinovdan o'tgan yagona integral yondashuv sifatida strategik ahamiyat kasb etadi.

IDI indeksining 2000–2024-yillar bo'yicha dinamikasi O'zbekiston infratuzilmasida sezilarli o'sish ro'y berganini ko'rsatib, umumiy indeksning 19,4 birlikdan 70,4 birlikka ko'tarilishi infratuzilmaviy modernizatsiyaning iqtisodiy

transformatsiyalardagi asosiy drayverlaridan biri ekanini tasdiqlaydi. Tarmoqlar kesimida transport infratuzilmasining 29,5 foizdan 74,9 foizgacha izchil oshishi hududiy integratsiya va tashqi savdo imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa, AKT sektori 26,1 foizdan 49,2 foizgacha ko'tarilib, ayrim yillardagi pasayishlarga qaramay, barqaror rivojlanish tendensiyasini namoyon qilgan. Bu o'zgarishlar O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli va logistika infratuzilmasi bo'yicha sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilayotganini ko'rsatadi.



**5-rasm. O'zbekistonda infratuzilmani rivojlantirish indeksining hozirgi holati<sup>18</sup>**

Suv va sanitariya ta'minotining 21,3 foizdan 56,6 foizgacha oshishi aholining turmush sifati va sog'liqni saqlash tizimiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lib, ayniqsa 2010-yillarda bu yo'nalishdagi jadal kengayish ijtimoiy infratuzilmaning mustahkamlanishiga xizmat qilgan; energetika sektori esa 2000-yildagi 0,6 foizdan 2024-yilda 100 foizgacha ko'tarilishi bilan eng tez o'zgargan tarmoq bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, "yashil energiya"dan foydalanishni kengaytirish va iqtisodiy o'sishga barqaror asos yaratishda hal qiluvchi rol o'ynagan. Umuman, IDIning barqaror oshib borishi O'zbekistonda infratuzilma rivojlanishining uzviy va kompleks amalga oshirilganini ko'rsatadi: transport va AKT tarmoqlari iqtisodiy integratsiya va raqamli transformatsiyaning tayanchiga aylangan, suv ta'minoti aholi farovonligini oshirgan, energetika esa umumiy indeksning asosiy drayveri sifatida infratuzilmani sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqqan; buning natijasida 2024-yilgi IDI ko'rsatkichi mamlakatning xalqaro reytinglarda yuqori pozitsiyalarni egallash imkoniyatini mustahkamlaydi.

Dissertatsiyaning **"Tadbirkorlik faoliyatida infratuzilmadan samarali foydalanishning istiqbollari"** deb nomlangan uchinchi bobida, kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma ko'rsatkichlarining ekonometrik tahlili olib borildi. Buning uchun ijtimoiy-iqtisodiy

<sup>18</sup> Rasm muallif tomonidan IDI metodologiyasiga asosan tayyorlandi.

infratuzilmani ifodalovchi va ularning asosini tashkil etuvchi omillarni statistik va ekonometrik jihatdan o‘zaro ta’sirchanligi aniqlandi.

Tadbirkorlik samaradorligini shakllantiruvchi asosiy infratuzilma omillari-transport, axborot, energetika, moliyaviy infratuzilmalar – o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ko‘rsatilgan. Har bir infratuzilma turi resurslar harakati, axborot almashinuvi, ishlab chiqarish jarayonlari va bozor imkoniyatlarining kengayishiga bevosita ta’sir etib, tadbirkorlik faoliyati natijadorligining oshishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini yanada aniqroq va samaraliroq qilish maqsadida hududlarni tadbirkorlik soniga ko‘ra yuqori, o‘rta va quyi kategoriyalarga ajratgan holda ekonometrik tahlil qilindi (7-jadval).

### 7-jadval

#### Bevosita va bilvosita infratuzilmaning yuqori hududlarda mavjud tadbirkorlik faoliyatiga ta’sirini vaqti qatorlarni umumlashtirish usuli orqali tahlili<sup>19</sup>

<i>lnkbt</i>	Coef.	Std. Err.	Z	P>z	[95% Conf. Interval]	
<b>Direct infrastructure</b>						
<i>gas</i>	-.0038256	.0015487	-2.47	0.014	-.0068611	-.0007902
<i>wtr</i>	-.0054953	.0015695	-3.50	0.000	-.0085714	-.0024193
<i>lnelctr</i>	.0261051	.0208055	1.25	0.210	-.0146729	.0668832
<i>lnfreight</i>	.6696334	.0939279	7.13	0.000	.4855382	.8537287
<i>lnpssngr</i>	-.9456597	.2386205	-3.96	0.000	-1.413347	-.4779722
<i>lnnatres</i>	.1024524	.0140162	7.31	0.000	.0749811	.1299237
<i>_cons</i>	11.51184	2.41634	4.76	0.000	6.775902	16.24778
<b>Indirect infrastructure</b>						
<i>invest</i>	.0003983	.010141	0.04	0.969	-.0194776	.0202743
<i>intrnt</i>	-.0263853	.0048962	-5.39	0.000	-.0359818	-.0167889
<i>lncrm</i>	-.1675041	.0627003	-2.67	0.008	-.2903944	-.0446138
<i>lngrad</i>	.4213686	.1072847	3.93	0.000	.2110944	.6316428
<i>lnhsptl</i>	1.562885	.4138415	3.78	0.000	.7517702	2.373999
<i>_cons</i>	1.162305	1.969256	0.59	0.555	-2.697365	5.021976

Bunda:

Yuqori – Toshkent shahri, Farg‘ona, Toshkent viloyati, Samarqand, Andijon;

O‘rta – Buxoro, Namangan, Surxondaryo, Xorazm, Qashqadaryo;

Quyi – Sirdaryo, Navoiy, Jizzax, Qoraqalpog‘iston Respublikasi kategoriyalarga kiritildi.

Tadbirkorlik soni ko‘p bo‘lgan hududlarda bevosita infratuzilmadan gaz, suv va yo‘lovchilar sonining o‘zgarishi, bilvosita infratuzilmadan esa internetga ulanish va jinoyatlar sonining ortishi bilan erkli o‘zgaruvchi o‘rtasida salbiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Jumladan, jinoyatlar sonining 1000 birlikka ortishi, suv va gaz

<sup>19</sup> “2023–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-465-son qarori, <https://lex.uz/docs/-6333021>

bilan ta'minlangan xonadonlarning 1 %ga qisqarishi esa tadbirkorlik subyektlari sonini mos ravishda 0,16, 0,054 va 0,038 birlikka kamaytiradi. Qolgan erkli o'zgaruvchilar tadbirkorlik soniga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va shu bilan birga ularning ta'siri kuchli ekanligini kuzatish mumkin.

## 8-jadval

### Bevosita va bilvosita infratuzilmaning o'rta hududlarda mavjud tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini vaqtli qatorlarni umumlashtirish usuli orqali tahlili<sup>20</sup>

<i>lnkbt</i>	Coef.	Std. Err.	Z	P>z	[95% Conf. Interval]	
<b>Direct infrastructure</b>						
<i>gas</i>	.0027416	.0054346	0.50	0.614	-.00791	.0133931
<i>wtr</i>	-.0164256	.0048315	-3.40	0.001	-.0258951	-.0069561
<i>lnelctr</i>	.0065925	.0451617	0.15	0.884	-.0819228	.0951077
<i>lnfreight</i>	.2119879	.362795	0.58	0.559	-.4990773	.9230531
<i>lnpssngr</i>	-.0594926	.0324627	-1.83	0.067	-.1231184	.0041332
<i>lnnatres</i>	.0282166	.0294294	0.96	0.338	-.0294641	.0858972
<i>_cons</i>	8.525432	4.122224	0.039	0.039	.4460207	16.60484
<b>Indirect infrastructure</b>						
<i>invest</i>	.0085622	.0088651	0.97	0.334	-.008813	.0259374
<i>intrnt</i>	-.0084867	.0053305	-1.59	0.111	-.0189343	.0019609
<i>lncrm</i>	-.0106148	.0485054	-0.22	0.827	-.1056836	.0844541
<i>lngrad</i>	.8201429	.0922701	8.89	0.000	.6392968	1.000989
<i>lnhsptl</i>	.1656571	.1332674	1.24	0.214	-.0955423	.4268565
<i>_cons</i>	2.47057	.8012926	3.08	0.002	.900065	4.041075

O'rta hududlarda gaz bilan ta'minlangan uy xo'jaliklari soni (*gas*), elektr energiya (*lnelctr*), yuk tashish hajmi (*lnfreight*), tabiiy boyliklar hajmi (*lnnatres*), investitsiya (*invest*), bitiruvchi talabalar soni (*lngrad*), shifoxonalar soni (*lnhsptl*) o'rta hududdagi tadbirkorlik soniga ijobiy, ichimlik suvi bilan ta'minlanish (*wtr*), yo'lovchi tashish hajmi (*lnpssngr*), korxonalarining internetga ulanish darajasi (*intrnt*) va jinoyatlar soni (*lncrm*) esa salbiy ta'sirda ekanligi aniqlandi (8-jadval).

Quyida hududlarda ham o'rta hududlardagi kabi bir xil natijaga erishildi. Jumladan, gaz bilan ta'minlangan uy-xo'jaliklari soni (*gas*), elektr energiya (*lnelctr*), yuk tashish hajmi (*lnfreight*), tabiiy boyliklar hajmi (*lnnatres*), investitsiya (*invest*), bitiruvchi talabalar soni (*lngrad*), shifoxonalar soni (*lnhsptl*) o'rta hududdagi tadbirkorlik soniga ijobiy, ichimlik suvi bilan ta'minlanish (*wtr*), yo'lovchi tashish hajmi (*lnpssngr*), korxonalarining internetga ulanish darajasi (*intrnt*) va jinoyatlar soni (*lncrm*) esa salbiy ta'sirda ekanligi aniqlandi (9-jadval).


<sup>20</sup> "2023–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–465-son qarori, <https://lex.uz/docs/-6333021>

**Bevosita va bilvosita infratuzilmaning quyi hududlarda mavjud tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini vaqtli qatorlarni umumlashtirish usuli orqali tahlili<sup>21</sup>**

Inkbt	Coef.	Std. Err.	Z	P>z	[95% Conf. Interval]	
<b>Direct infrastructure</b>						
<i>gas</i>	.0001907	.0060214	0.03	0.975	-.0116111	.0119925
<i>wtr</i>	-.0025807	.0081959	-0.31	0.753	-.0186445	.013483
<i>lnelctr</i>	.0357324	.0454949	0.79	0.432	-.053436	.1249008
<i>lnfreight</i>	.5233134	.288708	1.81	0.070	-.0425439	1.089171
<i>lnpssngr</i>	-.5629777	.8313256	-0.68	0.498	-2.192346	1.066391
<i>lnnatres</i>	.1369204	.0698387	1.96	0.050	.0000391	.2738017
<b>cons</b>	7.136368	6.484265	1.10	0.271	-5.572559	19.84529
<b>Indirect infrastructure</b>						
<i>invest</i>	.0066057	.0050981	1.30	0.195	-.0033863	.0165978
<i>intrnt</i>	-.0229614	.0091032	-2.52	0.012	-.0408034	-.0051195
<i>lncrm</i>	-.2413326	.0928828	-2.60	0.009	-.4233795	-.0592857
<i>lngrad</i>	.9346283	.1628848	5.74	0.000	.61538	1.253877
<i>lnhsplt</i>	.2785777	.2739467	1.02	0.309	-.2583479	.8155033
<b>cons</b>	3.172383	1.671409	1.90	0.058	-1.1035179	6.448284

Tahlillar natijasida olingan topilmalar shuni ko'rsatadiki, hududlarda tadbirkorlik rivojlanishiga tadbirkorlikni moliyalashtirish, gaz, elektr, suv, internet, ishchi kuchi samaradorligi kabi bir qancha infratuzilmani ifodalab keluvchi o'zgaruvchilar ta'sir qilishi aniqlandi.

Qo'llangan test natijalari model tanlovining to'g'riligini va uning prognozlarni amalga oshirishga tayyor ekanligini isbotladi. Test natijalari modelning tarixiy ma'lumotlarga mosligini, parametrlarning statistik jihatdan ishonchliligini hamda prognoz qilingan qiymatlarning real sharoitlar bilan muvofiqligini ko'rsatdi.



**6-rasm. Yalpi samaradorlik indeksining IDI ta'sirida 2030-yilgacha bo'lgan prognoz natijalari<sup>22</sup>**

<sup>21</sup> "2023–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–465-son qarori, <https://lex.uz//docs/-6333021>

<sup>22</sup> Stata@17 dasturi yordamida muallif tomonidan hisoblangan.

6-rasmda rasmda VAR(1) modeli asosida baholangan prognoz natijalari keltirilib, TFP (Yalpi samaradorlik indeksi)ning IDI (infratuzilma rivojlanish indeksi) ta'sirida 2025–2030-yillarga mo'ljallangan dinamik o'zgarish trayektoriyasi aks ettirilgan.

Prognoz natijalari tahliliga ko'ra, 2025-yildan boshlab TFP o'sish tendensiyasini saqlab qolgan holda, 2027–2030-yillar oralig'ida nisbatan barqaror, muvozanatga yaqin holatga kiradi. Bu holat infratuzilma rivojlanishining yalpi samaradorlikka bo'lgan ta'siri bir bosqichli emas, balki vaqt davomida to'planib namoyon bo'lishini anglatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston iqtisodiyoti uchun TFP (yalpi samaradorlik)ning o'sishi infratuzilma rivojlanishining tizimli kuchayishi bilan uzviy bog'liqdir. Prognoz modeliga ko'ra:

Infratuzilma rivojlanishidagi ijobiy o'zgarishlar ishlab chiqarish resurslarining samarador ishlatilishini ta'minlaydi;

IDI indeksining o'sishi TFPni o'rta va uzoq muddatda oshiruvchi omil sifatida ta'sir qiladi;

TFPning barqaror o'sishi iqtisodiy tizimning ichki barqarorligini, texnologik yangilanishga tayyorligini va raqobatbardoshligini oshiradi;

## 10-jadval

### Jarque-Bera normallik testi natijalari

Series	Statistic	p-value	Normal?
TFP	3.2669	0.1953	Yes
IDI	0.9067	0.6355	Yes
Joint (df=4)	4.1736	0.3830	Yes

10-jadvaldagi Jarque–Bera normal taqsimot testi natijalariga ko'ra, TFP ( $p = 0.1953$ ) va IDI ( $p = 0.6355$ ) qoldiqlari uchun p-qiymatlar 0.05 dan katta bo'lgan. Shuningdek, birgalikdagi (joint) test natijasi ham  $p = 0.3830$  bilan nol gipoteza – “qoldiqlar normal taqsimlangan” degan farazni rad etmaydi.

Demak, VAR(1) modelining qoldiqlari normal taqsimotga ega, bu esa modelning statistik jihatdan to'g'ri shakllanganligini va tahlil natijalari ishonchligini tasdiqlaydi.

## 11-jadval

### Heteroskedastiklikni tekshirish uchun ARCH testi ( $H_0$ : no ARCH effects)

Series	p-value	ARCH mavjudmi?
TFP	0.5858	No
IDI	0.8910	No

11-jadvaldagi ARCH test natijalariga ko'ra, TFP ( $p = 0.5858$ ) va IDI ( $p = 0.8910$ ) seriyalari uchun p-qiymatlar 0.05 dan katta bo'lgan. Bu esa nol gipoteza “qoldiqlarda heteroskedastiklik mavjud emas” degan faraz rad etilmasligini bildiradi.

Shunday qilib, VAR(1) modeli qoldiqlarida ARCH-effekt kuzatilmaydi, ya'ni dispersiya barqaror (homoskedastik) bo'lib, model natijalari barqaror va ishonchli hisoblanadi.

Yuqoridagi test natijalari modelning to'g'ri tanlanganini hamda uning prognozni amalga oshirish uchun tayyorligini ko'rsatdi, shuningdek, qoldiqlarning normal taqsimlanishi prognoz natijalarining statistik jihatdan ishonchli ekanini ko'rsatadi.

## XULOSA

Ilmiy ishda tadbirkorlik samaradorligini oshirishda infratuzilma faoliyatidan foydalanishni takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarga ega bo'lish mumkin:

1. Tahlil etilgan fikr va mulohazalardan keyin tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi ahamiyatidan kelib chiqib infratuzilmani samarali ishlab chiqarishni va sifatli ijtimoiy hayotni ta'minlash, ishlab chiqarish kuchlarini bir-biri bilan samarali bog'lash, samaradorlikka ijobiy ta'sir etgan holda, kapital aylanishini tezlashtirish kabi vazifalarini farqlash mumkin.

2. Davlat tomonidan energetika sohasidagi belgilab olingan maqsadlarga ko'ra, energiya infratuzilmasini tejamkor va yashil energiya tomon yo'naltirish bo'yicha sezilarli ishlar ko'zga tashlanmoqda. Ammo hali ham qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalar kam kiritilmoqda, loyihalarning ko'pchilik qismini gaz va neft sohalari tashkil etmoqda.

3. Tadqiqotimiz natijalari tadbirkorlik subyektlari sonidan kelib chiqib, hududlarni toifalarga ajratgan holda tadbirkorlikka infratuzilma omillari ta'sirini baholash imkonini beradi.

4. Bevosita infratuzilma va tadbirkorlik o'sishi o'rtasidagi murakkab aloqalar haqida qimmatli tushunchalarni taqdim etdi. Tabiiy gazdan foydalanish, internet foydalanuvchilari va bitiruvchilar kabi ba'zi munosabatlar statistik jihatdan ahamiyatli va mavjud adabiyotlarga mos kelsa-da, boshqalari, masalan, elektr energiyasi, magistral yo'llar va kasalxonalarining kutilmagan salbiy ta'siri asosiy sabablarni tushuntirish uchun qo'shimcha tadqiqotlarni talab qiladi.

5. Turli infratuzilma omillarining kutilgan ijobiy ta'sirini ham, kutilmagan salbiy ta'sirini o'rganib, ushbu tadqiqot dalillarga asoslangan qaror qabul qilishga yordam beradigan qimmatli ma'lumotlarni taqdim etdi. Keyingi tadqiqotlar elektr energiyasi, avtomobil yo'llari va shifoxonalar bilan bog'liq paradoksal topilmalarning o'ziga xos sabablarini, ularning tadbirkorlik rivojlanishiga ta'sirini to'liq tushunishga ko'proq e'tibor qaratishi kerak.

6. Modelning hisob-kitoblari natijasida qo'shimcha tadqiqotlar uchun hisobga olinishi kerak bo'lgan bir qator muhim holatlar aniqlandi. Birinchidan, model bilvosita bevosita infratuzilmadan ko'ra mavjud tadbirkorlik subyektlarining samaradorligiga ko'proq ta'sir ko'rsatishi, infratuzilmalarning rivojlantirilishi hududlarda tadbirkorliklarning samaradorligini o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

7. Normativ-huquqiy, tadbirkorlik institutlari, infratuzilma va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari kabi omillarni hisobga olgan holda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun dasturlar ishlab chiqish muhimdir. Bu hududlar, tuman va shaharlarda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

8. Zamonaviy talablarga javob beradigan tegishli me'yoriy-huquqiy baza samarali infratuzilmani rivojlantirish tadbirkorlik uchun zaruriy shartdir. Yuqoridagi empirik tahlillarga asoslangan holda O'zbekiston Respublikasi hududlarida infratuzilma qanday rivojlanishi kerakligini ko'rsatuvchi turli xil xulosalar qilish mumkin, jumladan:

yuqori samaradorlik ko'rsatgan hududlar mavjud yutuqlarni mustahkamlash va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirishga e'tibor qaratishi maqsadga muvofiq. Bunda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirish hamda ishlab chiqarishning yuqori qo'shimcha qiymatga ega tarmoqlariga sarmoya yo'naltirish muhimdir. Shu orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqaror saqlab qolish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyati kengayadi;

o'rtacha samaradorlikdagi hududlar uchun asosiy e'tibor mehnat unumdorligini oshiruvchi texnologiyalar va malakali ishchi kuchini tayyorlashga qaratilishi kerak. Bu hududlarda biznes muhitini soddalashtirish, kichik korxonalariga soliq imtiyozlari berishni qayta ko'rib chiqish va innovatsion inkubatorlarni tashkil etishni yanada rivojlantirish orqali tadbirkorlik faolligini kuchaytirish mumkin. Shu bilan birga, hududiy infratuzilmani yaxshilash iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi;

past samaradorlik va beqaror hududlar uchun taklif — iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirishdir. Bunda mahalliy xomashyo resurslariga asoslangan ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, mikromoliyaviy institutlar orqali moliyaviy resurslardan foydalanishni osonlashtirish zarur. Shu bilan birga, bandlikni oshirish uchun kasb-hunar o'qitish dasturlarini samarali yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maxsus e'tibor talab etuvchi hududlarda esa ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani yaxshilash va undan uzluksiz foydalanish imkoniyatlarini yaratish lozim. Bu hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi grantlar, subsidiyalar hamda imtiyozli kreditlar kengroq joriy etilishi kerak. Shu bilan birga, investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini samarali tashkil etish hududlar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/2025.27.12.1.23.02 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**БОТИРОВА ХУЛКАР ОЛИМДЖОНОВНА**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ  
ИНФРАСТРУКТУРЫ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ  
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**08.00.01 – Экономическая теория**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Ташкент – 2026**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2025.3.PhD/Iqt5637.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках — узбекском, русском и английском (резюме) — размещается на веб-странице Научного совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** **Норбоев Одил Абраевич,**  
кандидат экономических наук, доцент

**Официальные оппоненты:** **Набиев Элшод Ганиевич,**  
доктор экономических наук, профессор  
**Исраилова Шоира Тургуновна,**  
кандидат экономических наук, доцент

**Ведущая организация:** **Университет Alfraganus**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.I.23.02 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете «\_\_» \_\_\_\_\_ 2026 года в \_\_\_\_ часов. Адрес: 100003, город Ташкент, улица И. Каримова, дом 49. Тел.: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 239-01-49, (99871) 239-43-51; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета, зарегистрированной под номером \_\_\_\_\_. Адрес: 100003, город Ташкент, улица Ислама Каримова, дом 49. Тел.: (99871) 239-88-72; факс: (99871) 239-43-51; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2026 года.  
Протокол реестра № \_\_\_\_ от «\_\_» \_\_\_\_\_ 2026 года.

**С.К. Худойкулов**  
председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.э.н.,  
профессор

**Б.Э. Мамарахимов**  
ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.э.н.,  
профессор

**У.В. Гафуров**  
председатель Научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.э.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В мировой экономике эффективное использование инфраструктуры (транспортно-логистической, энергетической, коммуникационно-цифровой, финансовой и институциональной инфраструктуры) в развитии предпринимательской деятельности способствует снижению транзакционных издержек в производственных и торговых процессах, облегчает доступ к рынкам и ускоряет расширение масштабов бизнеса. В регионах с высоким качеством инфраструктуры за счет сокращения перебоев в цепях поставок, уменьшения сроков доставки и обеспечения стабильности услуг повышаются производительность и конкурентоспособность предприятий. Кроме того, развитие цифровой инфраструктуры, платежной и кредитной инфраструктуры расширяет возможности малого бизнеса в сфере электронной коммерции, маркетинга, основанного на данных, и доступа к финансированию, стимулируя создание новых рабочих мест. «Недостаточное развитие дорог, железных дорог, портов и средств связи увеличивает издержки предприятий и снижает их конкурентоспособность»<sup>1</sup>. Это свидетельствует о том, что расширение современной инфраструктурной системы и ее совершенствование на основе научно обоснованных подходов являются одной из актуальных задач современности для всесторонней поддержки предпринимательской деятельности.

В мировой экономике последовательно проводятся научные исследования, направленные на раскрытие теоретических основ использования инфраструктуры в развитии предпринимательской деятельности, в частности, на системное обоснование механизмов влияния инфраструктуры на производственные издержки, доступ к рынкам, институциональное качество и инновационную активность. Важнейшими направлениями научных исследований в данной области являются: моделирование инфраструктуры как «социального капитала» с позиции ее влияния на экономический рост и производительность предприятий; теоретическое обоснование влияния инфраструктуры на транзакционные издержки и бизнес-среду (качество регулирования) в рамках новой институциональной экономики; анализ влияния транспортно-логистической инфраструктуры на кластеризацию и рост малого предпринимательства в теории региональной экономики и агломерации; обоснование влияния цифровой инфраструктуры на технологическую диффузию, экосистему стартапов и человеческий капитал в теориях инновационных систем и эндогенного роста; концептуализация влияния финансовой инфраструктуры (платежные системы, кредитная информация, гарантийные институты) на динамику предпринимательства через механизмы финансовой инклюзии.

В Узбекистане задачи, определенные в сфере эффективного использования инфраструктуры для развития предпринимательской

---

<sup>1</sup> [https://archive.doingbusiness.org/content/dam/doingBusiness/media/Annual-Reports/English/DB13-Chapters/About-Doing-Business.pdf?utm\\_source](https://archive.doingbusiness.org/content/dam/doingBusiness/media/Annual-Reports/English/DB13-Chapters/About-Doing-Business.pdf?utm_source)

деятельности, прежде всего направлены на полное обеспечение свободных экономических зон и малых промышленных зон инженерно-коммуникационной инфраструктурой (электроэнергия, газ, вода, дороги), логистическими и цифровыми услугами, ускорение процессов обслуживания бизнеса на основе принципов «единой дирекции» и «единого окна», а также укрепление финансовой инфраструктуры (кредитование, гарантии, страхование). На практике активизированы меры по совершенствованию системы управления промышленными зонами, созданию готовых производственных помещений и сервисной инфраструктуры в зонах, а также расширению доступа предпринимателей к финансовым ресурсам. В частности, в государственной политике определены задачи по направлению в 2026–2027 годах в общей сложности 270 трлн сумов на поддержку предпринимательской деятельности и создание необходимых финансовых и инфраструктурных условий.”<sup>2</sup> В связи с этим особую актуальность приобретают научные исследования, посвященные оценке влияния инфраструктуры на результаты предпринимательской деятельности (издержки, оперативность, выход на рынок, занятость) и разработке критериев эффективности.

Данное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 30 января 2025 года № ПФ-16 «О Государственной программе по реализации стратегии “Узбекистан – 2030” в “Год охраны окружающей среды и “зеленой экономики”», Указе от 21 февраля 2024 года № ПФ-37 «О Государственной программе реализации стратегии “Узбекистан – 2030” в “Год поддержки молодежи”», Постановлении от 31 марта 2023 года № ПП-110 «О мерах по совершенствованию деятельности Фонда поддержки предпринимательства», Постановлении от 8 апреля 2022 года № ПП-209 «О мерах по дальнейшему усилению поддержки предпринимательской деятельности и улучшению бизнес-среды», Постановлении от 13 октября 2020 года № ПП-4862 «О дополнительных мерах по развитию предпринимательства в регионах и обеспечению занятости населения», Постановлении от 11 апреля 2019 года № ПП-4277 «О дополнительных мерах по созданию благоприятных условий для развития предпринимательства», а также других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационная работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики: «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

**Степень изученности проблемы.** Теоретические основы использования инфраструктуры в повышении эффективности предпринимательства

---

<sup>2</sup> О мерах по реализации задач, определённых в V открытом диалоге Президента Республики Узбекистан с предпринимателями. - [https://president.uz/oz/lists/view/8394?utm\\_source](https://president.uz/oz/lists/view/8394?utm_source)

исследованы в трудах зарубежных ученых Е.В. Хечиева, В.М. Геца, М. Торранса, Дж.Р. Брайсона, Р.А. Малхолла, М. Сонга, П.Й. Лу, Р.Дж. Доусона, Д.Ф. Роджерса, Э. Айканы, Ёшино Наюки и других.<sup>3</sup>

Теоретические и практические аспекты развития инфраструктуры нашли отражение в научных публикациях узбекских ученых У. Гафурова, Р. Карлибаевой, Б. Салимова, Б. Беркинова, И. Турсунова, М. Ташходжаева, З. Ашурова, Х. Хасанова, Ф. Джураева, У. Абидхаджаева и К. Шарипова.<sup>4</sup>

Анализ результатов исследований, посвященных развитию предпринимательства посредством совершенствования инфраструктуры, показывает наличие дискуссионных и недостаточно изученных в научном плане аспектов в данном направлении. Исследования, проведенные с учетом особенностей экономики Республики Узбекистан, остаются ограниченными по масштабу. В связи с этим необходимость исследования указанных вопросов в условиях экономики Узбекистана послужила основанием для выбора темы исследования.

**Связь темы исследования с научно-исследовательскими работами высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация.** Настоящая научно-исследовательская работа выполнена в рамках научного проекта в соответствии с планом научно-исследовательских работ Ташкентского государственного экономического университета.

**Цель исследования.** Разработка научных предложений и практических рекомендаций по совершенствованию механизмов эффективного

---

<sup>3</sup> Хечиев Е.В. Типология инфраструктурных ограничений развития бизнеса // *Via in tempore. История. Политология.* 2009. №1 (56). (дата обращения: 18.07.2022). Гец В. М. Общество, государство, экономика: феноменология взаимодействия и развития [монография] / В. М. Гец.- К.: НАН Украины, 2009 - 864 с. Torrance, M., 2009. The rise of a global infrastructure market through relational investing. *Econ. Geogr.* 85 (1), 75–97. Bryson, J. R., Mulhall, R. A., Song, M., Loo, B. P. Y., Dawson, R. J., & Rogers, C. D. F. (2018). Alternative-substitute business models and the provision of local infrastructure: Alterity as a solution to financialization and public-sector failure. *Geoforum*, 95, 25–34. doi:10.1016/j.geoforum.2018.06.022. E. Aykana, S. Aksoyly, and E. Sönmez, “Effects of Support Programs on Corporate Strategies of Small and Medium-Sized Enterprises”, in *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, iss. 99, pp. 938-946, 2013. Yoshino, Naoyuki, and Umid Abidhadjaev (2015). *An Impact Evaluation of Investment in Infrastructure: The Case of the Railway Connection in Uzbekistan*.

